

HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIIY-HUQUQIY OMILLARI

Dilfuzaxon Mamadjonova

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20524400>

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy-huquqiy omillar tahlil qilingan. Xususan, huquqiy ta’lim va tarbiya, aholining huquqiy ongi, qonun ustuvorligini ta’minlash, davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi, ommaviy axborot vositalari hamda raqamli texnologiyalarning huquqiy bilimlarni targ‘ib etishdagi o‘rni yoritib berilgan. Shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda demokratik huquqiy davlatni rivojlantirishda huquqiy madaniyatning ahamiyati tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: Huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy tarbiya, huquqiy ta’lim, qonun ustuvorligi, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, inson huquqlari, huquqbuzarliklarning profilaktikasi, ijtimoiy-huquqiy omillar, demokratik jamiyat, huquqiy savodxonlik.

Bugungi globallashuv va demokratik islohotlar jarayonida huquqiy madaniyatni yuksaltirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida aholining huquqiy ongini oshirish, qonunlarga hurmat munosabatini shakllantirish hamda huquqiy savodxonlikni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Huquqiy madaniyat shaxsning huquq va burchlarni anglash darajasi, qonunlarga rioya etish ko‘nikmalari hamda jamiyatda huquqiy tartib-intizomga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi. Shu bois, uni yuksaltirish nafaqat davlat siyosati, balki ijtimoiy hayotning barcha sohalariga bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida qaraladi. Huquqiy madaniyat mazmunan keng tushuncha bo‘lib, u shaxsning huquqiy ongi, huquqiy xulq-atvori, huquq normalariga nisbatan munosabati, qonun ustuvorligini qadrlash kabi tarkibiy qismlarni qamrab oladi. U ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarida namoyon bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining huquqiy asosini tashkil etadi. Shuningdek, “huquqiy madaniyat betakror ijtimoiy voqelikdir. Bugungi kunda mustqail O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining butun asosi bo‘lmish huquqiy madaniyatni qaytadan tiklamoqda. Xalqimizning teran ma’naviy-huquqiy merosi, uning boy tabiiy va aqliy imkoniyatlari, mustahkamlanib borayotgan xalqaro aloqalari huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib bermoqda”[1]. Fikrimizcha, huquqiy madaniyatning yuksalishi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki huquqiy madaniyat fuqarolarning qonunlarga hurmat ruhida yashashi, o‘z huquq va majburiyatlarini chuqur anglashi hamda huquqiy munosabatlarda faol ishtirok etishini ta’minlaydi.

“Aholining huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirishda istiqlool tufayli qaror topgan yangicha huquqiy tafakkur va xalqimizning yuksak ma’naviy salohiyati yangilangan Konstitutsiyamizda mafkuraviy poydevor sifatida o‘z ifodasini topdi. Konstitutsiyamiz, bir tomondan, ijtimoiy huquqiy ongning yuksak ifodasi bo‘lmish huquqiy tizimning, huquqiy mafkura va madaniyatning bevosita mahsuli sifatida vujudga keldi, ikkinchi tomondan esa, aholining huquqiy ongi, yangicha tafakkuri va madaniyatini shakllantirish, ularni ijobiy yo‘naltirish hamda yuksaltirishning muhim omili bo‘lib xizmat qilmoqda”[2]. Fikrimizcha, Konstitutsiya nafaqat davlat va jamiyat hayotining asosiy huquqiy manbai, balki fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy-huquqiy omil ham hisoblanadi. Unda

mustahkamlangan inson huquqlari, erkinliklari, qonun ustuvorligi va adolat tamoyillari jamiyat a'zolarining huquqiy qadriyatlariga bo'lgan munosabatini belgilaydi

Bugungi globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish va huquqiy madaniyatini yuksaltirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Chunki jamiyat taraqqiyoti, qonun ustuvorligi va ijtimoiy barqarorlikka erishish bevosita fuqarolarning huquqiy bilim va tushunchalari darajasiga bog'liq. Afsuski, ayrim hollarda huquqiy savodsizlik, qonunlarga befarqlik yoki ularni buzish holatlari ham uchrab turadi.

Huquqiy madaniyatning shakllanishi nafaqat huquqiy institutlar va qonunchilikning mavjudligi bilan belgilanadi, balki jamiyatdagi ijtimoiy, ma'naviy va tarbiyaviy omillarga ham bog'liq. Fuqarolarning huquqiy bilimlari va ongining darajasi, ijtimoiy adolat va qonuniylikka bo'lgan hurmati, shuningdek, huquqiy tarbiya tizimining samaradorligi huquqiy madaniyatni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, huquqiy madaniyatni shakllantirishning ijtimoiy-huquqiy asoslarini tadqiq etish fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash, qonunlar ijrosini ta'minlash va huquqiy barqarorlikni yaratish borasida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Bugungi kunda fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyatni shakllantirish, ayniqsa yosh avlod orasida, davlatning huquqiy siyosati, ommaviy axborot vositalari va ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Tadqiqotchi X.Mamaziyayevning fikricha: “Huquqiy ong va huquqiy madaniyat bosqichma-bosqich shakllanib boradigan jarayon hisoblanadi. Huquqiy madaniyatning yuksalishi esa qonunga itoat tuyg'usini rivojlanishiga olib keldi. Hozirgi kunda mazkur masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda, shu maqsadda fuqarolarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, ta'lim-tarbiyasi, huquqiy savodxonligini yanada yuksaltirish, yoshlarning huquq sohasiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularni huquqiy jihatdan yetuk va barkamol avlod etib tarbiyalash asosiy maqsad va muddaolardan biri hisoblanadi. Jamiyatda o'z haq-huquqini biladigan va qonun-qoidalarga og'ishmay amal qiladigan fuqarolar huquqiy davlatning poydevoridir”[3].

Mamlakatimizda yosh avod tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shuningdek, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash ham muhim vazifalar sirasiga kiradi. Huquqiy demokratik davlat qurishda o'sib kelayotgan yosh avlodning huquqiy bilimlarni mukammal egallaganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy madaniyatning nazariy asoslari haqida biq qator mutaxassislar o'z fikrlarini bildirib huquqiy jihatdan tahlil qilib berishgan. Ushbu fikrlarga ko'ra, huquqiy madaniyat – bu jamiyat a'zolarining huquqiy bilimlari, qadriyatlari, e'tiqodlari va amaliy xulq-atvorining yig'indisidir.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy madaniyatni yuksaltirish jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy savodxonligini oshirish hamda demokratik huquqiy davlatni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Huquqiy ta'lim va tarbiya, Konstitutsiya va qonunlarning mazmun-mohiyatini keng targ'ib etish, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish huquqiy madaniyatni shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy-huquqiy omillardir. Mazkur omillarning izchil va uyg'un amalga oshirilishi jamiyatda huquqqa hurmat, qonuniylik va ijtimoiy adolat tamoyillarining mustahkam qaror topishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. Darslik. 2 tomli. 1-tom. Toshkent. 1998, 15-bet.

2. <https://www.uzbekistan.org.ua/uz/youngliklar/7072-o-zbekiston-yuksak-huquqiy-ong-va-huquqiy-madaniyat-%E2%80%93-rivojlanish-garovi.html>
3. Mamaziyayev, X. (2025). Jamiyatda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish: muammo va yechimlar. *Наука и инновация*, 3(11), 39–43.
4. Мамажонова, Д. (2022). Конституциявий ислохотлар–халқ манфаатининг асосий мезони. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 688-693.